NUTQ MADANIYATI ISHBILARMONLIK MUHITIDA MUTAXASSISNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM SHARTI SIFATIDA

Begimov Odil To‘xtamishovich
Qarshi davlat texnika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori
begimovodil6161@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada zamonaviy mutaxassisning kommunikativ kompetentsiyasining shakllanishida nutq madaniyatining ahamiyati masalasi tadqiq etilgan. Bunda asosiy e’tibor nutq madaniyati va nutq odobi ko‘nikmalarini mukammal egallash zaruriyatiga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya, ishbilarmonlik, mutaxassis, nutq odobi.

ANNOTATION

The article examines the importance of speech culture in the formation of communicative competence of a modern specialist. The main attention is paid to the need to master speech culture and speech etiquette skills.

Keywords: speech culture, communicative competence, business, specialist, speech etiquette.

KIRISH

Ma’lumki, nutq madaniyati inson umumiy madaniyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Nutq madaniyati nafaqat nutqda xatolikka yo‘l qo‘ymaslik, balki so‘z boyligini muntazam oshirib borish, suhbatdoshni tinglash va tushunish, uning nuqtayi nazarini hurmat qilish, har bir muayyan nutqiy vaziyatda so‘zlarni to‘g'ri tanlash qobiliyati hamdir. Nutq madaniyatining yo‘nalishlaridan biri ishbilarmonlik munosabati - ijtimoiy muloqotning eng ommaviy turlaridan biri hisoblanadi. U tijorat va ma’muriy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va diplomatik munosabatlar sohasiga xizmat qiladi. Og'zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish ishbilarmonlik muloqoti sohasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Muloqot mahoratini egallash, u qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, har bir kishi uchun zarurdir. Hayotda muvaffaqiyatga erishishga, martaba pillapoyalaridan muvaffaqiyatli ko‘tarilishga, odamlar bilan samarali va malakali muloqot qilishga intilayotgan har bir kishi shaxslararo va ishbilarmonlik aloqalari sohasida nutq

madaniyatidan ma’lum bilim va ko‘nikmalarni egallashi kerak. Lekin muloqot qilish qobiliyati tadbirkorlar, menejerlar, boshqaruv sohasida band bo‘lgan odamlar uchun ayniqsa muhimdir [3, 17].

TADQIQOTNING METODOLOGIK ASOSLARI VA USULLARI

Tadqiqot metodologiyasi tilshunoslikda kuzatilgan tarixiylik va ijtimoiylik tendentsiyaga asoslanadi. U ma’lum bir tarixiy jarayondagi barcha hodisalar tarixiy va ijtimoiy shartlar va hodisalardan ajratmasdan talqin qilinishini nazarda tutadi.
Tadqiqotning ilmiy-nazariy asosini zamonaviy tilshunoslikning stilistika sohasida qo‘llaniladigan ilmiy fikrlarni tahlil qilish usullari tashkil etadi.

Shuningdek, tilshunoslikka oid tadqiqotlarda mavjud umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun bilan uyg‘unlashgan dialektik qonuniyatlarga tayaniladi. Asosiy tadqiqot usuli sifatida materiallarni tasniflash, tavsiflash, tuzilish va shakllanishiga ko‘ra tahlil qilish, til faktlarini solishtirishdan foydalaniladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ishbilarmonlik muhitida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishning muhim shartlaridan biri nutq madaniyati, ya’ni suhbatdoshining ijtimoiy, kasbiy va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘z fikrlarini malakali, aniq va mantiqiy ifodalash qobiliyatidir.

Ishbilarmonlik muhitida bo‘lajak mutaxassisning muvoffaqiyatli muloqotni amalga oshirishda nutq madaniyatiga xos bo‘lgan quydagi ko‘rsatkichlar namoyon bo‘ladi:
lug‘at boyligi – nutqning yorqinligi va shaxsning o‘z fikrini aniq va chiroyli yetkaza olishi, shu orqali suhbatdoshi va hamkasblarini o‘z g‘oyalari ahamiyatiga ishontira olish;

nutq tarkibi – aniq tilda gapirish, kasbga oid terminlarni o‘rinli ishlatish, adabiy til me’yorlariga yetarli darajada amal qilish orqali ko‘proq ishonch uyg‘ota olish;
savodxonlik – ibora va gaplarni muloqat tilning stilistik va grammatik qoidalariga rioya qilgan holda tuza olish;

talaffuz va intonatsiya – insonning nafaqat nima degani, balki uni qanday aytishi ham muhim. So‘zlarning noto‘g'ri yoki tushunarsiz talaffuzi, tez yoki juda sekin va bir xil ohangdaki nutq so‘zlovchiga bo‘lgan qiziqishni so‘ndirishi mumkin.
Ishbilarmonlik muhitida madaniy nutqni amalga oshirishda muloqot madaniyatining noverbal komponentlari – mimika, imo-ishoralar, so‘zlovchining o‘zini tutishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Agar so‘zlovchining turishi va imo-ishoralarida uning o‘ziga nisbatan ishonsizlik, hayajonlanish, sarosima yoki qo‘rquvga tushishi namoyon bo‘lsa,

suhbatdoshning nazarida uning ahamiyati pasayib ketishi mumkin [2, 38].
Ishbilarmonlik muhitida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassisning omma oldida nutq so‘zlash mahorati va madaniyati alohida bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi.

Notiq tomonidan taqdim etilayotgan axborot, odatda, tinglovchilarning tushunish, ma’qullash yoki aksincha, tushunmaslik, fikrga qo‘shilmaslik kabi turlicha munosabatiga sabab bo‘ladi. Yaxshi ma’ruzachi tinglovchilarning munosabatiga qarab, so‘zlash jarayonida o‘z nutqini to‘g’rilash qobiliyatiga ega bo‘ladi va vaziyatni o‘z qo‘liga olgan holda tinglovchilarning ijobiy munosabatiga erishadi. Albatta, bu notiqdan o‘ziga xos tayyorgarlik va tajriba talab etadi.

Notiqlik bo‘yicha tajriba orttirish imkoniyatiga faqat amaliy usullar orqali erishiladi. Aynan shu amaliy ko‘nikmalar nutqni mohirona qurish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Nutq madaniyatining namoyon bo‘lishida tashqi ko‘rinish va xatti-harakatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, inson haqida birinchi va, qoidaga ko‘ra, eng kuchli taassurot uning tashqi ko‘rinishini, xulq-atvorini baholash asosida shakllanadi. Ishga har kuni tashqi ko‘rinishda ozoda va yaxshi kiyingan holda kelish zarurati odamlarning ishda mas'uliyat, odoblilik, sadoqat va aniqlik kabi ish fazilatlarini oshirishga moyilligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, tashqi ko‘rinish odob-axloq qoidalariga rioya qilish, uning atrofidagi odamlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini ko‘rsatadi.

Ishbilarmonlik muhitida nutq madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri, fikrimizcha, mutaxassisning kommunikativ kompetensiyasi hisoblanadi. U quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:
- aloqa o‘rnatish qobiliyati;
- savol berish qobiliyati;
- "kichik suhbat" o‘tkazish qobiliyati;
- so‘hbatdoshini o‘z pozitsiyasini, go‘yalarini, takliflarini aniqlashtirishga undash qobiliyati;
- so‘hbatdoshining maqsadlarini eshitish va tushunish qobiliyati;
- suhbatdoshi ifoda eta olmaydigan fikrni idrok etish va tushunish qobiliyati;
- suhbatdoshiga uni eshitilganligi va tushunilganligini yetkazish qobiliyati;
- suhbatda emotsional hayajonlarni tenglashtirish qobiliyati va boshqalar [4,159].

Mamlakatimizda yangi avlod Davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqishda, xususan, kompetensiya va kompetentlikka yo‘naltirilgan yondashuv tushunchasiga e'tibor qaratildi va bu bilan unga qo‘shimcha mazmun yuklatildi. Ko‘pgina tadqiqotchilar kompetensiya - “harakatdagi bilim”, ya’ni “ishning talabi bilan mos ravishda maqsadli harakat qilish tayyorgarligi va

qobiliyatiga ega bo‘lish” tushunchasini ifodalashini ta’kidlashadi [3, 5].

Hayotiy tajribalarning ko‘rsatishicha, bugungi kunda mehnat bozori, birinchidan, kasbiy kompetentlikka ega bo‘lgan; ikkinchidan, ijtimoiy yyetuk va faol; uchinchidan, ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan mutaxassislarni talab qilmoqda. Ish beruvchilarning fikriga ko‘ra kasbiy kompetentliklar orasida kommunikativ kompetensiya birinchi o‘rinni egallaydi. Kommunikativ kompetensiyaning qanchalik darajada shakllanganligi, birinchi navbatda, mutaxassisning nutq madaniyatining qanchalik egallaganligida namoyon bo‘ladi va bu uning umumiy kompetentlik darajasini ko‘rsatuvchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. O‘z ona tiliga nisbatan muhim qadriyat sifatida munosabatda bo‘lishni tarbiyalash va nutq madaniyatini kommunikativ kompetentsiya sifatida shakllantirish maqsadining dolzarbligi quyidagi ziddiyatlar bilan bog‘liq: hozirgi zamonga tegishli murakkab kommunikativ vazifalarni bajara olish qobiliyatiga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarga bo‘lgan kuchli ehtiyoj va oliy o‘quv yurtiga kirayotgan quyi ta’lim bosqichi bitiruvchilarining etarli nutqiy madaniyat hamda bilimga ega bo‘lmasliklari.

Shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda nofilologik, xususan, texnika oliy o‘quv yurtlariga kirayotgan talabalarning nutq madaniyati sohasidagi bilimlari nihoyatda past darajada. Garchi oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha ta’lim bosqichlarida ona tili, o‘zbek tili, hozigi o‘zbek adabiy tili predmetiga etarli darajada o‘quv soatlari ajratilgan bo‘lsa ham, ayrim ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko‘ra bu fanlardan bitiruvchilarning bilim darajalari talabga javob bermaydi. Bu narsa oliy ta’lim bosqichida ularning yozma va og‘zaki nutqqa xos muammolarni keltirib chiqarmoqda. O‘z navbatida, bunday muammolarni bartaraf etish katta qiyinchilik tug‘dirmoqda. Bitiruvchilarda nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi, albatta. Bunga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: ona tiliga tegishli qonun-qoidalarni o‘rganishga e'tiborsizlik, badiiy adabiyotlarni o‘qishga qiziqishning yo‘qligi(tajribalardan ma’lumki, keyingi vaqtda ko‘pgina o‘quvchi yoshlar boshqa omillarning ta’sirida badiiy kitob o‘qish bilan umuman shug‘ullanishmaydi), mobil aloqa – qo‘l telefonlaridan foydalanishning kuchayib borishi ta’sirida yoshlar o‘rtasida forum-, chat- va sms- tilini muloqatning asosiy shakliga aylanib borayotganligi, oilaviy munosabatda nutq madaniyati darajasining pasayib borayotganligi, ommaviy axborot vositalarining, jumladan, Internet tilining nihoyat darajada “demokratiyalashib” borayotganligi, ijtimoiy tarmoqlar nutqida jargonlar va vulgarizmlarning nihoyatda ko‘p qo‘llaniyotganligi, maktab o‘qituvchilarining o‘zbek tili va adabiyotini sifatli o‘qitishga bo‘lgan e'tibor va qiziqishlarini nihoyatda pastligi va h.k.

Bugungi kunda oliy ta’lim bitiruvchisida kasbiy kompetentsiyani har tamonlama shakllantirish uchun, birinchi

navbatda, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungu kunda oliy ta'limni bitiruvchi bo‘lajak mutaxassis ishbilarmonlik muhitida yetarli darajada faoliyat ko‘rsatishi uchun quyidagi kommunikativ kompetensiyalarni egallagan bo‘lishi lozim: 1) o‘z ona tilini belgilar sistemasi va tafakkur va madaniyat mavjudligining usuli, uning tuzilishi, rivojlanishi va shakllanishi haqidagi fan sifatida bilishi; 2) hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilining me'yorlari va vazifaviy uslublari haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; 3) yozma va og‘zaki nutq me'yorlarini etarli darajada egallash; 4) turli kommunikativ yo‘nalishlarga tegishli matnlarni tuzish bilan bog‘liq nutqiy-kommunikativ ko‘nikma va malakalarni shakllantirish; 5) barcha turdagi nutqiy faoliyat turlarini puxta egallash; 6) o‘zbek tiliga milliy-madaniy qadriyatlarning muhim ajralmas qismi sifatida munosabatda bo‘lish tuyg‘ularini shakllantirish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan nutq madaniyati bilan bog'liq ko‘nikma va malakalarni egallash natijasida ishbilarmonlik muhitida to‘laqonli muloqotni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi. Shundan keyingina rahbar yoki mutaxassis o‘ziga xos kasbiy kompetensiyalarini namoyon eta oladilar. Nutq madaniyatiga xos xususuiyatlar ular faoliyatining ajralmas elementiga aylanadi va ular har qanday joyda doimiy ravishda qo‘llashlari mumkin bo‘ladi. Bu bilimlar ishbilarmon shaxsning yuqori kasbiy faolligining kafolati bo‘libgina qolmay, balki tabiiy xomashyodan farqli o‘laroq, tugamaydigan, aksincha, ko‘paytiriladigan asosiy resurs bo‘lishi kerak [5, 127].

Albatta, har qanday mutaxassisning martabasi ko‘p qirralidir. Bo‘lajak mutaxassis har qanday kasbda ierarxik zinapoyaning eng quyi pog'onasida qolishi yoki yuksaklikka erishishi, yetarli darajada tayyorgarlikka ega malakali mutaxassis bo‘lishi mumkin. Yuksak nutq madaniyatiga asoslangan kommunikativ kompetentsiya ishbilarmonlik muhitida yuksak g'oyalarni amalga oshirishga va biznes hamkorlari tomonidan tan olinadigan muvaffaqiyatli shaxs sifatida faoliyat olib borishga yordam beradi.

REFERENCES

1. Baydenko V. I. Kompetensii v professionalnom obrazovanii (k osvoeniyu kompetentnostnogo podxoda)// Visshee obrazovanie v Rossii. 2004. № 11. S. 3 - 13.
2. Vvedenskaya L.A. Kultura i iskusstvo rechi: Sovremennaya ritorika / L.A. Vvedenskaya, L.G. Pavlova. Rostov-na / D : Feniks, 1995. – 576 s.
3. Igebaeva F.A. Professionalnaya podgotovka spesialistov dlya agrosektora v usloviyax rinochnix preobrazovaniy (Na primere Respubliki Bashkortostan) // Visshee obrazovanie segodnya.

Resenziruemoe izdanie VAK v oblasti psixologii, pedagogiki i sosiologii, 2016, № 2. – S.16 – 18.
4. Koltunova M.V. Delovoe obshenie: Normi, ritorika, etiket: ucheb. Posobie/ M.V.Koltunova. -M.: Logos, 2005. – 346 s.
5. Igebaeva F.A. Delovoe obshenie kak iskusstvo i nauka. // Aktualnie problemi kommunikasii: teoriya i praktika Materiali III Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. 2011. S. 126 -129.
6. Igebaeva F.A. O metodax formirovaniya kommunikativnoy kompetentnosti vipusknikov agrarnogo universiteta // Gumanizasiya obrazovaniya. Nauchno-prakticheskiy jurnal. Sochi, 2015, № 6. – S. 65 - 70.
7. Rusko-uzbekskiy slovar: v 2-x t. – T. 1983. – S.808.